



BO'LAJAK JURNALISTNING KASBIY FAOLIYATGA OID BILIM, KO'NIKMA VA MALAKASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Kenesbaev KuralbayBaltabaevich

PhD

Nukus innovatsion instituti o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14223260>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2024 yil
Ma'qullandi: 23- Noyabr 2024 yil
Nashr qilindi: 26- Noyabr 2024 yil

KEY WORDS

*jurnalistika, malaka,
kompetensiya, tadqiqotchilik,
kollegial muloqot, amaliy trening,
mahorat darslari, pedagogik
modellashtirish.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada bo'lajak jurnalistlarda kasbiy bilim, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy jihatlari tahlil etilgan hamda jurnalist kadrlar tayyorlashning innovatsion modeli mazmuni ochi berilgan.

Mamlakatimizda jurnalistika sohasida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy maqsadi – jurnalistika kadrlarini tayyorlash tizimini jahon standartlariga javob beradigan yangi bosqichga chiqarishdan iborat. Bu borada bo'lajak jurnalistlarda kasbiy bilim, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy jihatlarni aniqlashtirish muayyan ahamiyat kasb etadi. Bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

Birinchidan, talabalar jurnalistika sohasida sifatli fan va ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga zarur ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam beradigan maxsus fanlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, o'qituvchilar tomonidan bo'lajak jurnalistning malakasini oshirishga yordam beradigan muammoli izlanish, evristik ta'lim singari metodlardan foydalanishlari talabalarga mashq qilish va fikr-mulohazalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, jurnalistning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda soha bo'yicha tadqiqotchilik ko'nikmalari muhimligi kuzatuvlarimiz natijasida namoyon bo'ldi. Tadqiqotchilik ko'nikmalari hozirgi tendensiyalarni va jurnalistlar duch kelayotgan muammolarni tushunishga yordam beradi, shuningdek, tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va ongli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu malakali jurnalist shaxsini shakllantirish uchun zarur kompetensiyalarni rivojlantirish va zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

To'rtinchidan, bo'lajak jurnalistning kelajakdagi kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi standartlar va axloqiy tamoyillar bilan tanish bo'lishi – zarur omillardan biri. Bunga tahrir qilish, faktlarni tekshirish, anonim manbalarga ishlov berish, xolislik va adolat tamoyillariga rioya qilish qoidalari kiradi.

Beshinchidan, kollegial muloqot – jurnalistlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning zarur mezonlaridan biridir. Jurnalistikaning turli sohalaridagi hamkasblar bilan o‘zaro hamkorlik tajriba va bilim almashishga, shuningdek, kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Forumlar va professional uyushmalar bunday muloqot uchun foydali platforma bo‘lishi mumkin.

Albatta, ushbu pedagogik asoslarning barchasi jurnalistning malakali va samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi. Shuningdek, kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda soha bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar muhim rol bajaradi. Chunki, ular ma‘lum bir soha bo‘yicha bilim va tushunchani shakllantiradi, shuningdek, tanqidiy fikrlash, ma‘lumotlarni tahlil qilish va ongli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, bo‘ljak jurnalistning kasbiy faoliyatga oid bilim, ko‘nikma va malakasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan quyidagi shakl, metod va vositalardan foydalanishga alohida ahamiyat qaratish lozim:

- amaliy treninglar bo‘ljak jurnalist uchun intervyu olish, yozish va tahrirlash kabi turli ko‘nikmalarni mashq qilishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Treninglar tajribali mutaxassislar rahbarligida o‘tkazilishi mumkin;

- mahorat darslari ilg‘or tajribalarni o‘rganish va tajribali mutaxassislardan maslahat olish, aloqalarni o‘rnatish imkonini beradi. Bunda o‘qitish, tajribalari bilan o‘rtoqlashish va talabalarning ijodiy mahoratini oshirish uchun taniqli jurnalist yoki ekspertlar taklif qilinadigan maxsus darslar tashkil etiladi va bu individual rivojlanishga yordam beradi;

- jurnalistika bo‘yicha chuqur o‘qitishni taklif qiluvchi onlayn kurslar va o‘quv dasturlari sohaning amaliy jihatlarini o‘rganishga muayyan darajada hissa qo‘shadi. Ushbu kurslar video darslar, topshiriqlar, fikr-mulohazalar va boshqa ishtirokchilar bilan muloqot qilish imkoniyatlarini o‘z ichiga olishi mumkin;


- faoliyatga oid professional adabiyotlarni o‘qish va o‘rganish, doimiy ravishda kasbga doir kitoblar, maqolalar va bloglarni mutolaa qilish bo‘ljak jurnalistning bilimni kengaytirish va malakasini oshirishda ahamiyati katta. Ular jurnalistikaning zamonaviy yo‘nalishlari bilan tanishish va ularni o‘z faoliyatida foydalanishda muhim o‘rin tutadi;

- jurnalistlar o‘zaro tajriba almashishlari, hamkasblar va ekspertlardan saboq olishlari, jurnalistika sohasidagi so‘nggi tendensiyalar bilan tanishishlari mumkin bo‘lgan professional tadbirlarda, konferensiya va seminarlarda ishtirok etish amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonini pedagogik modellashtirish dolzarb vazifa bo‘lib, uning yordamida pedagogik jarayonni tashkil etishning mohiyati va bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlar ketma-ketligini yetkazish mumkin. Jurnalistika ta‘limda bo‘ljak jurnalistlarda kasbiy bilim, malaka va kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot jarayonini tashkil etishning optimal yo‘li bu modellashtirishdir. Pedagogik model – bu o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy prinsiplari, usullari va yondashuvlarini tavsiflovchi va tizimlashtiradigan nazariy konsepti yoki tushuncha bo‘lib, ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish, o‘quv rejalari va o‘qitish usullarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Modellashtirish doirasida jurnalist kadrlar tayyorlashning istiqbolga yo‘naltirilgan innovatsion modelini ishlab chiqish maqsadi belgilandi. Mazkur model o‘zaro aloqador va bir-birini to‘ldiruvchi tarkibiy qismlardan iborat hamda tarkibidagi komponentlar o‘zaro

bir-biri bilan bog'langan. Modelning ushbu turi jurnalist-talabalarning kasbiy-ijodiy faoliyatga oid bilimlari va kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini nazarda tutadi, natijada har tomonlama yetuk jurnalist kadrlar tayyorlashga imkon beradi (1-rasm).



1-rasm. Jurnalist kadrlar tayyorlashning innovatsion modeli

Model mazmunini quyidagicha tavsiflash mumkin: maqsadli komponent innovatsion-mediya muhit sharoitida kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan ijtimoiy talab asosida universal jurnalistlarni tayyorlash bilan bog'liq maqsad va vazifalarini o'zida ifoda etadi; metodologik komponent jurnalistika ta'limini amalga oshirishga doir asosiy yondashuvlar va tamoyillarni o'zida aks ettirib, ayniqsa, akmeologik yondashuv va universiallik tamoyili muhim ustuvorlik kasb etadi; mazmunli komponent innovatsion ta'lim mazmuni va "Qoraqalpog'istonda jurnalistika ta'limi"

nomli onlayn kurs dasturi integratsiyasini talab etadi; tashkiliy-didaktik komponent bo'lajak jurnalistlarni tayyorlashga doir tashkiliy, mazmunli, jarayonga xos pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion o'qitish shakllari va interfaol metodlar tizimini o'zida mujassamlashtirgan; natijaviy-baholashga doir komponent jurnalistika ta'limi samaradorligini baholash mezonlari va darajalarini belgilab beradi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, jurnalistning kasbiy bilim, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, talabalar jurnalistika asoslari to'g'risida tushunchaga, jurnalistika tamoyillari va usullari, jumladan, reportaj tayyorlash, intervyu olish, maqola yozish, tahrirlash va boshqa asoslari bo'yicha fundamental bilimlarga ega bo'lishi lozim. Bu ularga kasb asoslarini tushunish va umumiy jurnalistik mahoratini shakllantirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, talabalar jurnalistikaning axloqiy tamoyillari, jumladan, aniqlik, adolatlilik va mustaqillik kabi muhim tamoyillar bilan tanish bo'lishi darkor. Shuningdek, shu tamoyillarga muvofiq ishlash uchun professional standartlar va amaliyotlardan xabardor bo'lishlari kerak.

Uchinchidan, bo'lajak jurnalist uchun tadqiqot ko'nikmalari muhimdir, ya'ni talabalar ma'lumotni tadqiq qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Bunga faktlarni tekshirish, ishonchli manbalarni qidirish, ma'lumotlar va statistikani tahlil qilish, ishonchlilik uchun ma'lumot manbalarini baholash qobiliyati kiradi.

To'rtinchidan, zamonaviy jurnalist turli media-texnologiyalar va vositalarni yaxshi bilishlari lozim. Bunga raqamli kameralar va jihozlardan foydalanish, video, audio va fotosuratlarini tahrirlash, ijtimoiy media va kontentni tarqatish platformalaridan foydalanish malakasi kiradi.

Beshinchidan, yosh jurnalistni kasbiy tayyorlashda yozma va og'zaki shaklda muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Bu intervyu olish, dialoglar o'tkazish, maqola va hisobotlar yozish hamda auditoriyaga ma'lumot taqdim etish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Oltinchidan, talabalarni jurnalistikada ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishga undash kerak. Bunga axborotni taqdim etishning yangi va original usullarini topish, yangi media formatlaridan foydalanish, turli janr va uslublar bilan tajriba o'tkazish kiradi. Shuningdek, jurnalistning kasbiy bilim va kompetentligini rivojlantirish jurnalistika sohasidagi joriy tadqiqotlar va ilg'or tajribalarga asoslanishi zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. Райимжонов Р.З. Рақамли технологиялар даврида журналистнинг профессионал компетентлигига қўйилаётган талаблар: миллий ва халқаро тажриба. Филол. ф.б. фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 139 б.
2. Свитич Л.Г., Ширяева А.А. Инновационные подходы к проектированию основных образовательных программ по направлению высшего профессионального образования «Журналистика». // Под ред. профессора Я.Н.Засурского. – М.: Изд-во МГУ, 2007. – 256 с.
3. Шестеркина Л.П. Формирование инновационной модели подготовки журналистов в контексте становления конвергентных

сми (гуманитарный и технологический аспекты): Автореф дисс. ... д-ра фил. наук. – Москва, 2011. – 52 с.

4. Kenesbaev K.B. Qoraqalpog'istonda jurnalist kadrlarni tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish. Ped. f.b. falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Nukus, 2024. – 52 б.

5. Кильпелайнен Е.С. Трансформация профессиональных компетенций журналиста в период цифровизации медиапространства. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: 2019. – 19 с.

6. Fackson Banda. Model curricula for journalism education. Printed in France. – 2013. – p. 217.

